XORAZM VILOYATI YANGIBOZOR TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 8-oktabr | 550-12-178-Q/24 | Yangibozor tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun 2025-yilda ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 25-moddalari, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonunining 12-moddasi, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonunining 14-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Yangibozor tumanida 2025-yilda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha korxonalar, tashkilotlar va muassasalar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Yangibozor tumanida 2025-yilda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha kasb va lavozimlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qarorning 1-ilovasida ko‘rsatilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda xodimlarning ro‘yxati bo‘yicha o‘rtacha sonidan kelib chiqqan holda, 49 kishini tashkil etadigan 100 foiz miqdorda, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 6,2 foiz (3 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilar uchun 81,6 foiz (40 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 2,4 foiz (1 kishi);

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 4,8 foiz (2 kishi);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 2,4 foiz (1 kishi);

pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslarlar uchun 2,4 foiz (1 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 2,4 foiz (1 kishi).

4. Ushbu qarorning 3-bandida ko‘rsatilgan toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlari to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishi kerak, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha vazifalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradigan;

o‘zgaruvchan ish jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

ta’lim muassasalarini tugatgan yoshlar uchun ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironlar uchun mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini (sog‘ligining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda) beradigan ish o‘rinlari;

bandlikka ko‘maklashish markazida ish qidiruvchi sifatida ro‘yxatda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun malaka talab qilinmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga koʻra tibbiy tusdagi majburlov choralari qoʻllanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun ularning kasb boʻyicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish oʻrinlari;

muayan kasb-hunarga va malakaga ega boʻlmagan shaxslar uchun esa maxsus malaka talab qilinmaydigan ish oʻrinlari tashkil qilinsin.

5. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qoʻyish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun koʻrsatilgan ish oʻrinlar tashkil etilishini ta’minlasinlar.

6. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish oʻrinlarini band qilib qoʻyish boʻyicha mazkur qaror ijrosini bajarmagan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning mansabdor shaxslariga Oʻzbekiston Respublikasi "Ma’muriy javobgarlik toʻgʻrisida"gi kodeksiga koʻra ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

7. Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi toʻgʻrisida nizomni tasdiqlash haqida”gi (Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-mayda roʻyxatga olingan, roʻyxat raqami 3163) buyrugʻiga asosan, subsidiya ajratib berish tartibi boʻyicha ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga — har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq toʻlash belgilanganligi inobatga olinsin.

8. Tuman kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi bir hafta muddatda mazkur qarorni 1-ilovada koʻrsatilgan korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari e’tiboriga yetkazsin.

9. Ushbu qaror kuchga kirishi munosabati bilan Yangibozor tumani hokimining 2024-yil 9- fevraldagi 79-12-178-Q/24-sonli qarori oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror tuman hokimligining rasmiy nashri boʻlgan “Yangibozor koʻzgusi” gazetasida e’lon qilinsin.

11. Tuman hokimligi axborot xizmati (U.Nurmetova) mazkur qarorni tuman hokimligining“yangibazar.uz” rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

12. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari J.Xalmetov hamda tuman hokimi o‘rinbosari J.Qo‘shnazarov zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **R.Jumaniyazov**

Yangibozor tuman hokimining
2024-yil 8-oktabrdagi
550-12-178-Q/24-son qaroriga
1-ilova

2025-yilda Yangibozor tumani bo‘yicha ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynaladigan mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdorini ajratish belgilangan ish beruvchilar

№	Korxona va tashkilotlar nomi	Jami ishlov-chilar soni	Jami belgilan-gan kvota ish o‘rinlari 2025-yil uchun rejasi	Ta'lim muassa-salarini tamom-laganlar uchun	Muddat-li harbiy xizmat-dan bo‘shatil ganlar	Pensiya yoshiga yaqinla-shib qolgan shaxs-larlar uchun	Nogiron ligi bo‘lgan shaxslar uchun	Yolg‘iz ota, onalar hamda 14 yoshgacha va nogiron bolalar	Jazoni ijro etish muassasa-laridan ozod qilinganlar	Odam savdosi jabr-diyda-lari
Jami tuman bo‘yicha		**2616**	**49**	**40**	**1**	**1**	**2**	**3**	**1**	**1**
1	Tuman tibbiyot birlashmasi	**958**	**12**	**8**	**0**	**0**	**1**	**3**	**0**	**0**
2	Obodonlashtirish boshqarmasi	**135**	**4**	**0**	**1**	**1**	**0**	**0**	**1**	**1**
3	Tuman madaniyat bo‘limi	**51**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
4	3-son maktab	**59**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
5	7-son maktab	**51**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
6	8-son maktab	**58**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
7	9-son maktab	**58**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
8	11-son maktab	**65**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**

9	13-son maktab	**72**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
10	14-son maktab	**74**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
11	16-son maktab	**41**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
12	18-son maktab	**39**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
13	19-son maktab	**75**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
14	22-son maktab	**50**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
15	23-son maktab	**36**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
16	24-son maktab	**73**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
17	25-son maktab	**37**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
18	26-son maktab	**56**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
19	27-son maktab	**50**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
20	28-son maktab	**57**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
21	29-son maktab	**37**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
22	30-son maktab	**34**	**1**	**0**	**0**	**0**	**1**	**0**	**0**	**0**
23	31-son maktab	**38**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
24	33-son maktab	**43**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
25	16-son bolalar musika va sanat maktabi	**57**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
26	Bolalar va o‘smirlar sport maktabi	**40**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
27	3-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	**27**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
28	4-son davlat	**29**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**

	maktabgacha ta’lim tashkiloti									
29	6-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	**38**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
30	7-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	**37**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
31	9-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	**24**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
32	11-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	**20**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
33	15-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	**40**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
34	16-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	**30**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
35	17-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	**27**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**

Yangibozor tuman hokimining
2024-yil 8-oktabrdagi
550-12-178-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Yangibozor tumani hududida joylashgan korxona, muassasa va tashkilotlarda aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan qismini ish bilan ta’minlash uchun 2025-yilga band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlarining kasblar va lavozimlari

№	Korxona va tashkilotlar nomi	Kasb va lavozimlar
1	Tuman tibbiyot birlashmasi	Shifokor, hamshira, feldsher, farrosh, oshpaz, qarovul
2	Obodonlashtirish boshqarmasi	Buxgalter, qorovul, farrosh
3	Tuman madaniyat bo‘limi	Mutaxassis, ishchi, ko‘cha supuruvchi, qorovul
4	3-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
5	7-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
6	8-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
7	9-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
8	11-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
9	13-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
10	14-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
11	16-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
12	18-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
13	19-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
14	22-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant

15	23-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
16	24-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
17	25-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
18	25-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
19	27-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
20	28-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
21	29-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
22	30-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
23	31-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
24	33-son maktab	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
25	16-son bolalar musiqa va san`at maktabi	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
26	Bolalar va o‘smirlar sport maktabi	Umumta'lim fanlari o‘qituvchisi, farrosh, qorovul, laborant
27	3-son davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	Hamshira, tarbiyachi, musiqachi, qorovul, farrosh
28	4-son davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	Hamshira, tarbiyachi, musiqachi, qorovul, farrosh
29	6-son davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	Hamshira, tarbiyachi, musiqachi, qorovul, farrosh
30	7-son davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	Hamshira, tarbiyachi, musiqachi, qorovul, farrosh
31	9-son davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	Hamshira, tarbiyachi, musiqachi, qorovul, farrosh
32	11-son davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	Hamshira, tarbiyachi, musiqachi, qorovul, farrosh
33	15son davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	Hamshira, tarbiyachi, musiqachi, qorovul, farrosh
34	16-son davlat maktabgacha	Hamshira, tarbiyachi, musiqachi, qorovul,

	ta`lim tashkiloti	farrosh
35	17-son davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	Hamshira, tarbiyachi, musiqachi, qorovul, farrosh